



Akademik To‘ra Mirzayev nomidagi
Shofirkon tuman Axborot – kutubxona markazi

Axborot bibliografiya xizmati

“Kitob – ilm va hikmat manbai”



(1 iyun- Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag‘ishlab)
“Kitob – ilm va hikmat manbai”
(Yangi olingan adabiyotlar bilan tanishtirish)

Shofirkon – 2026

Kirish

Yaxshilik qil, yurtningni yashnat,
Qo‘ldan berma shunday imkonni.
Sen hech kimdan kam emassan, bil,
Bolasisan O‘zbekistonni!

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni butun dunyo bolalari uchun eng quvonchli bayram hisoblanadi. Albatta, bola bu dunyo, bola bu hayot mazmunining ajralmas qismidir. Bolalar o‘z tabassumlari orqali insonlar qalbida hayotga, yashashga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadilar. Ko‘zlarida ezgulik va mehr qalqib turgan bolajon musaffo osmonda erkin parvoz etayotgan qaldirg‘och misoli.

Kelajak tarix bilan bunyod etiladi deyilganidek, ushbu kunning ham o‘z tarixi bor. Bu kunni aynan 1-iyun sanasida nishonlash taklifi 1925-yil Jenevada ilgari surilgan. 1950-yildan esa 1-iyun Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida butun dunyoda Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Yozning birinchi kuni dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida kelajagimiz egalari uchun turli konsertlar, ko‘rgazmalar, sayillar, sport musobaqalari o‘tkaziladi. Istrohat bog‘lari esa bolalarning tabassumlari bilan go‘yoki mo‘jizalar dunyosiga aylanadi. Mamlakatimizda ham ushbu bayram har yili dillarda quvonch ila nishonlanadi. Sababi O‘zbekiston – bolajon yurt, xalqimiz esa azaldan bolajon xalq. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston qo‘shilgan ilk xalqaro shartnomalar qatorida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan so‘ng aynan Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya turishi ham buning yaqqol isbotidir.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. Quyosh hamma yerda bir xil nur sochadi. Ammo bugun bolalari baxtiyor, tinch va farovon yashayotgan mamlakatlarda u yanada yorqinroq porlab, o‘zining qaynoq nurlarini ayamay tuhfa etayotgandek.

1-iyun sanasi ko‘plab mamlakatlarda bolalar kuni, bolalar bayrami sifatida keng nishonlanadi. Qaynoq yoz faslining birinchi kuni hamda bolalarning sevimli shodiyonasini nafaqat ularning o‘zlari, balki kattalar ham o‘zgacha xursandchilik bilan qarshi oladi.

Bugun esa biz har bir bolaga mehr berish, asrash va ularning baxtli kelajagi uchun mas‘ul ekanimizni unutmasligimiz lozim. Chunki bolalar – ertamiz, umidimiz va jamiyatimizning eng bebaho boyligidir.

Ushbu adabiyotlar sharhidan kitobxonlar quyidagi yangi adabiyotlardan foydalanishlari mumkin.

1. Bir xumcha oltin : ertaklar / to'plovchi : Suxrobjon Avvalboyev. – Toshkent : Yurist-media markazi nashriyoti, 2018. – 320 b.

“Bir xumcha oltin” — mashhur o‘zbek xalq ertaklaridan biri bo‘lib, unda donolik, insof va mehnatsevarlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Ertakda bir kekxa ota va uning uch o‘g‘li haqida hikoya qilinadi: Ota vafotidan oldin o‘g‘illarini chaqirib, bog‘ning bir joyiga «bir xumcha oltin» ko‘mib qo‘yganini aytadi. Ota vafotidan keyin o‘g‘illari boylikni topish ilinjida butun bog‘ni qayta-qayta kavlab chiqishadi, lekin hech qanday oltin topa olishmaydi. Yer yaxshi yumshatilgani va qazilgani sababli, o‘sha yili bog‘ juda katta hosil beradi. O‘g‘illar hosilni sotib, ko‘p pul topishadi. Shundagina ular otasi nazarda tutgan “oltin” - bu tayyor xazina emas, balki mehnat orqali keladigan baraka ekanini tushunib yetishadi. Bu ertak bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga, yerdan unumli foydalanishga va halol rizq topishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

2. Aytmatov, Ch. Sarvqomat dilbarim [Matn] : qissa / Ch. Aytmatov. – Toshkent : Ilm-ziyo zakovat, 2020. – 144 b.

Chingiz Aytmatovning ushbu qissasida tom ma’noda hayotiy-maishiy haqiqat va muammolar tasvirlanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asar qahramonlari - Ilyos, Asal, Xadicha, Boytemir, Jontoylarning har birining o‘ziga xos fe’l- avtori hozirgi kunda ham zamondoshlarimizning qaysidir birlarida takrorlanadi.

Asar bilan Ilyos asar boshida tasodifan uchrashib, taqdir taqazosi bilan o‘zaro turmush qurishadi. Lekin negadir Ilyos o‘z muqaddas oilasiga xiyonat qiladi...

3. Afg‘on xalq ertaklari / Dariy tilidan Z. Umarov va A. Ismoilov tarjimalari. – Toshkent : Zabarjad Media, 2020. – 112 b.

"Mening ertaklar kolleksiyam" turkumi doirasida nashr etilgan "Afg‘on xalq ertaklari" kitobi bolalar uchun mo‘ljallangan qiziqarli to‘plamdir. Bolajonlarimizga yangi dunyolarni ochadigan, ularni turfa tabiatli qahramonlar bilan yuzlashtiradigan, umrlarining eng go‘zal lahzalariga bezak beradigan ertaklarni nashrga tayyorlarkanmiz, kichiklar oldida qanchalik katta mas'uliyati-

miz borligini his qildik. "Mening ertaklar kolleksiyam" ruknida dunyo xalq og'zaki ijodining betakror namunalari farzandlarimizni bolaligidanoq adabiyotga, kitobga mehr qo'yishlari maqsadi bilan nashrga tayyorlandi.

4. Nima uchun va shuning uchun : Bolalar ensklopediyasi. – Toshkent : Butibooks MK nashriyoti, – 2022. – 141 b.

Barcha yosh bolalar savol berishni yaxshi ko'radilar, lekin afsuski, ularning otanalari har doim ham ularga javob berishga vaqtlari yo'q. Bizning ensiklopediyamiz yordamga keladi: unda bezovta bolalar so'raydigan deyarli 300 xil savollar mavjud - Yer va kosmos, hayvonlar va o'simliklar, qadimgi sivilizatsiyalar va zamonaviy mashinalar. Farzandingiz bilan O'qing va yordam bering.

5.Yoqubov, O. Ota izidan : qissa va hikoyalar / O.Yoqubov. – Toshkent : Zabarjad Media, 2022. – 144 b.

Farzand - otaning izdoshi, farzand - otaning g'ururi, farzand - otaning suyanchi. Bu ko'pchilik biladigan oddiy haqiqat.

Odil Yoqubov asari qahramoni bo'lgan Shukurjon ham otasiga shunday sadoqat bilan ulg'aygan ziyoli yigit. U bosmachilar bilan jangda halok bo'lgan otasining diydorini ko'rmagan, otasining bag'rida orom olmagan, otasining erkalashlaridan bahramand bo'lmagan. Bunday go'zal va eng shirin tuyg'ularga qalbi tashna

bo'lib voyaga yetgan. Afsuski, ona ko'kragini har tun qo'msaydigan go'dak bu mehrdan ham mosuvo bo'lib, ona tomonidan buvisi qo'lida tarbiya topadi.

Buvisi Shukurjonni ota-onasiga mehr tuyg'usi bilan voyaga yetkazadi, unga har oqshom uyqu oldidan otasining qahramonligi haqida go'zal hikoyalar so'zlab beradi.

Voyaga yetgan Shukurjon endi otasi ruhini shod qilish, uning pok nomini oqlashni o'zining farzandlik burchi deb biladi, shunga ahd qiladi. Ammo bu yo'lda uning oldida bir qancha to'siqlar paydo bo'ladi.

6.Alpomish [Matn] : doston. – Toshkent : Zukko kitobxon, 2023. – 576 b.

“Alpomish” – dostonining ushbu nusxasi xalqimizning mashhur baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan kuylangan va Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan. O'zbek xalqining buyuk adiblaridan biri – Hamid Olimjon esa birinchi bor nashrga tayyorlagan. To'liq holatda yozma holatga keltirilishi esa Hodi Zarif va To'ra Mirzayev tomonidan amalga oshirilgan.

Ushbu dostonni o'qish davomida xalqimizning bir qancha tarixiy etnografik urf-odatlarini, dehqonchilik, chorvachilik, safar, baxillik va saxiylik, aka-uka munosabatlari, iymon va e'tiqod haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

7.Afrika Jonivorlari / Bolalar uchun ilmiy-ommabop nashr. – Toshkent : “DAVR NASHRIYOTI” MCHJ, 2023. – 36 b.

Ushbu kitob yosh kitobxonlarni Afrika qit'asida yashaydigan g'aroyib jonivorlar bilan tanishtiradi. Unda bu g'aroyib jonivorlarning hayoti haqida hikoya qilinadi.

8. Ajoyib jonivorlar / Bolalar uchun ilmiy-ommabop nashr. – Toshkent : “DAVR NASHRIYOTI” MCHJ, 2023. – 36 b.

Ushbu kitob yosh kitobxonlarni sayyoramizda yashaydigan ajoyib jonivorlar bilan tanishtiradi. Kitobdagi suratlar uni yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

9. Bo'rixon, L. Imom Motrudiy [Matn] : roman / Luqmon Bo'rixon. – Toshkent : Yosh kuch, 2023. – 352 b.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixon ushbu romanda olis X asr boshlaridagi ko'hna Samarqandning siyosiy-ijtimoiy, ma'rifiy hayotidan ayrim lavhalarni qalamga oladi. Ulug' ajdodlarimizdan biri, mashhur alloma Abu Mansur Moturidiyning badiiy siyomosini aks ettirishga urindi. Asar dramatik voqealarga, qiziqarli, sermazmun bahs-munoxaralarga boy. Luqmon Bo'rixon qalamiga mansub ushbu roman muhtaram, talabchan o'quvchilarni befarq qoldirmaydi, degan ummiddamiz.

10. Dono qiz / ertaklar to'plami / to'plovchi : Ergashboy Matyoqubov. – Toshkent : **Ilm-ziyo-zakovat, 2023.** – 128 b.

"Dono qiz" o'zbek xalq og'zaki ijodining eng mashhur va tarbiyaviy ahamiyatga ega ertaklaridan biridir. Bu ertakda qizning aqli, zakovati va qiyin vaziyatlardan topqirlik bilan chiqib ketishi tasvirlanadi.

11. Dinazavrlar / Bolalar uchun ilmiy-ommabop nashr. – Toshkent : “DAVR NASHRIYOTI” MCHJ, 2023. – 36 b.

Kitob yosh o'quvchilarni Yerda juda uzoq vaqt – 165 mln. yilga yaqin hukmronlik qilgan qadimgi kaltakesaklar – dinazavrlar olami bilan tanishtiradi.

12. Kalila va Dimna : epos – Toshkent : Turon zamin nashriyoti, MCHJ, 2023. – 288 b.

«Kalila va Dimna» uzoq vaqtlardan beri o'zbek xalqiga ma'lum. Uning ko'p hikoyatli so'zlari, ajoyib hikoyalari har xil yo'llar bilan xalq orasida keng yoyilib, og'izdan og'izga o'tib kelmoqda. Asarning o'zbek xalq ijodi va yozma

adabiyotiga ham ta'siri katta. Butun dunyo xalqlarining, jumladan o'zbek xalqining ham mulkiga aylanib qolgan shoh asarni qayta o'qish baxti sizga muborak bo'lsin, aziz kitobxon!

13. Osim, M. Jayxun ustida bulutlar [Matn] : tarixiy qissalar / Mirkarim Osim. – Toshkent : Phapos ambition, 2023. – 160 b.

Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashlari bir necha ming yillar oldin mag'rib va mashriqda afsonalarga aylangan, ular haqda ko'plab asarlar yozilgan. Ushbu kitobda Mirkarim Osimning mazkur mavzuga oid eng sara asarlari jamlandi.

Aziz kitobxon, Vatanni sevgan, forslardan uni himoya qilgan, tinchligiga posbon bo'lgan massagetlar podshosi To'maris, cho'pon Shiroq, dunyo ilm-faniga beqiyos hissa qo'shgan ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy boshidan kechirgan g'aroyib voqealar haqida, mo'g'ullarga qarshi kurashgan o'trorliklar hamda yengilmas bahodir Temur Malik jasoratidan hikoya qiluvchi qissalar mutolaasiga sho-shiling.

14. Pufakvoy / ertaklar to'plami / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi : Ergashboy Matyoqubova. – Toshkent : Ilm-ziyo-zakovat, 2023. – 128 b.

"Pufakvoy" ertaklar to'plami yosh bolajonlar uchun mo'ljallangan, tarbiyaviy va kulgili voqealarga boy o'zbek xalq ertaklari yoki zamonaviy ertaklar turkumi hisoblanadi.

"Pufakvoy" ertagining bosh qahramoni me'yor nimaligini bilmaydi va o'zining haddan tashqari ko'p ovqatlanishi yoki boshqa harakatlari tufayli qiyin vaziyatga tushib qoladi. Ertak oxirida u o'z xatolaridan afsuslanib, to'g'ri ovqatlanishni va tartibni o'rganadi.

15. Qodiriy, A. O'tkan kunlar [Matn] : roman / A. Qodiriy. – Toshkent : Turon zamin, 2023. – 416 b.

Ushbu roman XIX asr voqealarini o'z ichiga olgan. Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibining fojiviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqealar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi. Boshqa yirik epik asarlardagi kabi „O'tkan kunlar“da ham hikoyanavislikning ko'p planliligi, ikkilamchi sujetlar mavjudligi, ketma-ket avj oluvchi va fojiali yakun topuvchi voqealar mavjud.

16. Ro‘ziyeva, S. Rus tilida gapirishni o‘rganamiz / S. Ro‘ziyeva. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2023. – 208 b.

Ushbu qo‘llanma mustaqil ravishda til o‘rganishni xohlovchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan. Mazkur loyihaning afzal jihati - hatto rus tilini mutlaqo bilmaydigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham oson va qulay dastur asosida tayyorlanganidadir. Ya'ni har bir mavzu o‘zbek tilida batafsil tushuntirib beriladi va bu darsni to‘liq o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘llanmadan mustaqil foydalanib, so‘zlar, so‘z turkumlari, shaxs-zamon, rod, predloglar, suffiks va qo‘shimchalarni o‘rganib, ularni to‘g‘ri qo‘llab gap tuza olish darajasida bilim egallash mumkin. Bu esa o‘z navbatida, tilni mukammal darajasida o‘zlashtirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir mavzudan keyin test savollari ham berilganki, bu, albatta, egallangan bilim va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlashda qo‘l keladi. Dialoglar esa rus tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishda yordamchi bo‘ladi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur qo'llanmani bemalol kitob shaklidagi «beminnat o'qituvchi» deb atash mumkin.

17. To‘xtaboyev, X. Ikki do‘st sarguzashti. [Matn] : qissa va hikoyalar / X. To‘xtaboyev. – Toshkent : Ziyonashr nashriyoti, 2023. – 128 b.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlarini o‘qimagan bola topilmasa kerak.

Ushbu kitobda o‘zlariga bildirgan ishonchni oqlab, qishlog‘iga gaz olib kelgan aka- ukalar, quloqsizligi uchun peshonasiga televizor yopishgan bolakay haqidagi qiziqarli qissalarni o‘qiysiz.

Shuningdek, ushbu to‘plamda yozuvchimizning tengdoshlaringiz hayoti haqida hikoya qiluvchi eng yaxshi hikoyalari o‘rin olgan.

18. Akbar, A. Oq qovunning bolasi [Matn] : she’rlar / Abdurahmon Akbar. – Toshkent : O‘zbekiston nashriyoti, 2024. – 64 b.

Qadrli bolajonlar! Siz taniqli bolalarijodkori Abdurahmon Akbarning bir-biridan quvnoq she’rlarni maza qilib o‘qigansiz.

Umid qilamizki qo‘lingizdagi “Oq qovunning bolasi” to‘plami ham sevimli kitoblaringiz orasidan joy oladi.

19. Donishmand cho‘pon [Matn] : ertaklar / tuzuvchi Malika Kamolova. – Toshkent : Ziyonashr, 2024. – 128 b.

Ushbu to‘plamda “Tulki bilan bo‘ri”, “To‘qqiz dangasa”, “Donishmand cho‘pon”, “Yalmog‘iz kampir”, “Oltin olma” kabi qiziqarli ertaklar o‘rin olgan.

O‘zbek xalq ertaklaridan saralab tayyorlangan ushbu to‘plam sizning sevimli kitoblaringizdan biri bo‘lib qolishiga ishonamiz.

20.Hunardan unar [Matn] : ertaklar / tuzuvchi Zikrulla Mamatov. – Toshkent : Ziyonashr, 2024. – 128 b.

Bu kitobda siz o‘z baxtini izlab yo‘lga chiqqan aka-ukalarning boshidan kechirganlari, egalaridan kechib ketgan echkinning sarguzashtlari hamda hunar egallaganligi tufayli o‘limdan omon qolgan podshoh haqidagi qiziqarli voqealar bilan tanishasiz.

21.Olti ahmoq va bir to‘qmoq. / ertaklar to‘plami. – Toshkent : Oltin qalam. 2024. – 128 b.

Ertaklar yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirib, fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, yaxshilik va yomonlik ezgulik va yovuzlikni bir- biridan farqlashni o‘rgatadi.

Ertaklar yosh kitobxonning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

22.Oyjamol / ertaklar to‘plami. – Toshkent : Oltin qalam, 2024. – 128 b.

"Oyjamol" nomi bilan bog‘liq ertaklar asosan o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lib, ular alohida to‘plam shaklida yoki umumiy ertak kitoblari tarkibida uchraydi.

23.Qobul, N. Sening bolalik osmoning : qissalar / Nurali Qobul. – Toshkent : Yoshlar matbuoti, 2024. – 224 b.

Nurali Qobul – go‘zal Baxmalning sodiq kuychisi. Uning barcha asarlari ana shu yurtning mehnatkash odamlari, ularning mashaqqatli taqdiridan hikoya qiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keying yillarning dahshatlari, odamlarning shu dahshatlardan omon o‘ta olgan sho‘rolar davridagi ayrim ayanchli taqdirlar, ezgulikning mashaqqatli g‘alabasi ushbu qissalarga jo etilgan.

Ronald D.R.T. Ikki Minora / Uzuklar hukmdori roman – epopeyasining ikkinch solnomasi – Toshkent : “Ilm- ziyo –zakovat”, 2024.- 528 b.

Britaniyalik adib Jon Ronald Ruyel Tolkin (1892-1973) qalamiga mansub "Hobbit yoxud borib qaytish" romanini uzviy davomi bo'lgan "Uzuklar hukmdori" roman-epopeyasini ona tilimizga tarjima qilishdan maqsad, seyr-jodu yoki afsungarlikni targ'ib qilish emas, aksincha yoshlarning yaxshilikka, adolatga, haqiqatga, mehr-muhabbatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, kindik qoni to'kilgan yurt - vatanga bo'lgan muhabbatini yanada yuksaltirishdir. Agar ushbu asarni boshidan oxirigacha o'qisangiz, unda ona yurt mustaqilligi uchun kurash, uni bosqinchilardan ozod qilish qancha mushkul va murakkab vazifa ekanligini anglaysiz. Asarni o'qigan yosh kitobxon murakkab hayotning ko'plab jihatlari, yaxshi-yomonliklari, oq-u qorasi, yovuzlik bilan ezgulik o'rtasidagi mangu kurashdan oz bo'lsa-da voqif bo'lishi, qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishib, bilimni oshishiga shubha yo'q.

24.Yovvoyi mushuk [Matn] : ertaklar / tuzuvchi Abdurahmon Jo'rayev. – Toshkent : Ziyonashr, – 2024. – 128 b.

Aziz bolajonlar!

Qo'lingizdagi to'plamda "Aqli bola", "Yovvoyi mushuk", "Cho'pon yigit bilan boy" kabi ertaklar jamlangan.

Ushbu kitob orqali sizga mutolaa zavqini ulash olsak, xursand bo'lamiz.

25.Shekspir, U. Makbet: [matn] Uilyam Shekspir. / ixchamlashtirilgan matn muallifi: Sem Nyumen; tarjimon: Ahror Sharif. – Yoshlar matbuoti, 2024. – 96 b.

"Makbet" - Uilyam Shekspir tomonidan taxminan 1606-yilda yozilgan eng mashhur va qonli tragediyalardan biridir.

Ulug' ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning sizga taqdim etilayotgan "Makbet" tragediyasi dramaturg ijodining avj yillarida yaratilgan asarlardan sanaladi. Asar Shotlandiya generali Makbetning hokimiyatga bo'lgan intilishi va uning natijasida kelib chiqqan fojialar haqida hikoya qiladi, unda qirol Makbet va ledi Makbet xiyonat tufayli boshidan kechirgan voqealar qalamga olingan. Asar kitobxonni taqdir va uning o'zgaruvchanligi xususida mushohada qilishga chorlaydi.

26.Hamdani, U. Yolg'izlik / ijtimoiy – falsafiy qissa – Toshkent : "Oltin qalam", 2025. – 112 b.

Ushbu qissani bir yoki ikki marta o'qish kamdir. Asarni o'qib undan xulosa chiqara olish juda oson ish emas, bunga esa asarning syujetsizligi majbur qiladi. Insonni yolg'iz qolishi aslida qo'rqinchli emas, faqat u shunga chiday olsa bo'ldi. Chunki inson yolg'iz qoldi deguncha istar-istamas o'zi bilan suhbat qura boshlaydi va o'shanda uning dili tiliga ko'chadi.

Eng yaqin insonlariga ham ayta olmaydigan so'zlarini tili bировga eshitilmasda lekin juda baland tovush bilan o'ziga aytadi bu holatda eshitmaslikni umuman iloji yo'q. Ichki "men" shunday u YOLG'ON so'zlashni bilmaydi, siz esa uni alday olmaysiz (aslida buni imkoni ham yo'q), u isyon qiladi siz esa uni bostirishga qodir bo'lolsangiz YOLG'IZ qoling. U bilan murosaga kelaman deb yolg'izlikni tanlasangiz ham adashmaysiz, chunki yolg'izlik orqali siz shu paytgacha bo'lgan hayotingiz va bundan keyingi hayotingizni ozgina bo'lsada o'ylab olasiz. Ulug'bek Hamdamning bu asari insondagi ichki kechinmalarni shu darajada mohirlik bilan ochib bera olganki, buni tushunish uchun Siz asardagi holatga tushushingiz va uni chuqur anglab yetishingiz kerak menimcha. Asarda insonning tanasi va ruhi o'rtasida juda keskin kurash ketishi ruh poklikka intilaman desa tana bunga yo'l bermasligi, bundan tashqari insonni hayotidagi tashvishlar o'zining sevimli mashg'uloti bilan istaganicha shug'ullanishga imkon bermayotgani, insonlar hayotida moddiyatga bo'lgan e'tibor ma'naviyatga bo'lgan e'tibordan kam bo'lmayotgani-yu, insonlarni arziyas mansablar uchun bir-biriga cho'x qazishi bilan bir qatorda insonni "ichki meni" bilan suhbatlashishga majbur etuvchi jumlar yoritilgan.

27.Oruell,J.1984 : antiutopik roman / Jorj Oruell.Tarjimon: Karim Bahriyev. – Toshkent : Yoshlar matbuoti , 2025. – 320 b.

1949-yilning 8-iyun kuni Jorj Oruellning mashhur "1984" romani dunyo yuzini ko'rdi. Antiutopiya janridagi ushbu asar senzura, total nazorat, so'z erkinligining yo'qligi insoniyatni qay ahvolga keltirib qo'yishini o'ta mubolag'ali va fojiali tarzda ko'rsatib bergan. Kitob butun dunyoni larzaga soldi va umuminsoniy qadriyatlar rivojiga hissa qo'shdi. Yangi tarixga, insoniyat madaniyatiga, ma'naviy va siyosiy qadriyatlariga bu darajada kuchli ta'sir o'tkazgan asarlar barmoq bilan sanagulik. U ko'plab tillarga o'girildi va millionab nusxada chop etildi.

28.Dunyo. Siyosat.Jamiyat. – Toshkent : "Ziyo nashr-matbaa" XK Guliston. – 2026 – 323 b.

Ushbu qo'llanma-ma'lumotnoma yoshlarning ommabop va muxtasar bilimlarga ega bo'lishlariga xizmat qiladi. Qo'llanma o'qituvchilar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari, abituriyentlar, turli kasb egalari va barcha bilimga qiziquvchilarga mo'ljallangan. Ushbu qo'llanmani yaratilishiga (2000-yil) professor A.P.Parpiyevning g'oyasi asos bo'lgan.

Qo'llanmani ushbu nashrini tayyorlashda mamlakatimizning turli go'shalaridan taklif va istaklar bilan murojaat qilganlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ushbu kitobning 13-nashriga 244 o'zgartirish, to'ldirish isloh qilish, aniqlik kiritish, yangilash amalga oshirildi.

Barcha ma'lumotlar rasmiy manbalarga asoslangan. Kitobning adadi (tiraji) o'zgarishi bilan ma'lumotlar isloh qilinadi va yangilanib boriladi.